

YANGI O'ZBEKISTONDA III RENESSANS POYDEVORINI BUNYOD ETISHDA TEMURIYLAR DAVRI RENESSANSI: TARIXIY, ILMIY, AXLOQIY BILIMLAR VA ULARNING TARIXIY AHAMIYATI

Sayitmurodova Feruza Xayrulla qizi ¹

¹ NDU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" (Traix) yo'nalishi I- "M" guruh magistranti,

E-mail: feruzasayitmurodova0201@gmail.com

Safarova N.O ¹

¹ Ilmiy rahbar: prof

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 21.05.2025

Revised: 22.05.2025

Accepted: 23.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Temuriylar davri, II
Renessans, Ulug'bek
akademiyasi, III Renessans,
"Temur tuzuklari", content.*

Ushbu maqola Amir Temurning ilm-fan homiysi sifatida faoliyati, Temuriylar davri Renessansi, Mazkur davrda yteishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, ularning jahon ilmiga ulkan hissa qo'shgan asarlari, mazkur ilmiy merosning bugungi davr uchun ahamiyati, ilmiy asarlarni o'rganish va allomalar ijodiy faoliyatini yoritish, kontentlar, tele-serial yaratish masalalari ilgari surilgan.

KIRISH. O'rta asrlar davri tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'rta Osiyo hududi mo'g'ullar bosqinidan so'ng, vayrona hududga aylandi, mo'g'ullar nafaqat bu hududning madaniy va moddiy boyliklarini yo'q qildi, balki, o'zlaridan madaniy jihatdan ancha yuqori turgan xalqqa o'z mustamlakachiligi davmida hech narsa bera olmadi, loaqal bitta bunyodkorlik namunasi bo'lgan shahar ham barpo eta olmadi. Lekin, mo'g'ullar istibdodining so'nggi davrlarida xalqimiz o'z irodasini bukmasdan ma'naviy va ijtimoiy jihatdan o'zgarishlar davrida turgan edi. Mana shunday bir davrda xalqning orzu-umidlarini ushaltiruvchi tarixiy, buyuk shaxs sifatida Amir Temur ibn Amir Tarag'ay Bahodir maydonga chiqdi. U yurtimiz ostonalarini mog'ullar zulmidan ozod etib, markazlashgan buyuk davlat barpo etdi. U davlat tuzibgina qolmasdan, balki, ilm-fan homiysi bo'ldi. Amir Temur va Temuriylar davri yurtimizda II Renessansga asos soldi. Aynan, mazkur uyg'onish

davrida yetishib chiqqan buyuk allomalarimizning bizga qoldirgan ulkan merosi: ilmiy, tarixiy, axloqiy bilimlari bugungi Yangi Renessansimiz uchun ham nihoyatda ahamiyatli va ularning qoldirgan ilmlarini chuqur o'rganish va ular faoliyatini bugungi yoshlarga to'la-to'kis ko'rsatib, yetkazib berish zaruratidir!

Asosiy qism. O'rta Osiyoni mustaqil qilgan va madaniyat tarqatgan bobokalonimiz Amir Temur shaxsiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, Amir Temurning o'zi ham juda ko'plab ilm sohalari bilimdoni, madaniyat peshvosi edi. xalqimizda bir gap bor. Qachonki, yurt boshqaruvchisi ilmi-fan sohibi, madaniyatli bo'lsa, albatta davlat ham ilm-fanda, umuman barcha sohada yuksaladi. "Temurning yana bir ulkan xizmati shundaki, u madaniyat va ilm-fan homiysi sifatida mashhur bo'ldi, o'z saroyiga olim-u fuzalo va din arboblari to'pladi. Xoja Afzal, Jalol Xokiy, Mavlono Xorazmiy, Mavlono Munshiy va boshqalar uning saroyida ilm-fan va badiiy ijod bilan mashg'ul bo'ldilar. Bobur Mirzoning xabar berishicha, o'sha davrda Samarqand eng go'zal shahar edi. Ispan sayyohi R.G. Klavixio Samarqandning go'zalligiga qoyil qolgan edi". [1] Amir Temur nafaqat markazlashgan davlat barpo etdi, balki bugungi kundagi demokratik, insonparvar davlat barpo etishning asosiy mezonlari va kurtaklarini yaratdi va ularni tizimlashtirib, "Temur tuzuklari" asarida jamladi. Mazkur asar bugungi davr boshqaruvi uchun ham nihoyatda ahamiyatli bo'lib, Amir Temurning boshqaruv sohasidagi o'gitlari dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda." Asar ikki qism, 56 banddan iborat. Birinchi qismda Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, ijtimoiy tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo'shni yurt va 27 ta mamlakatni, jumladan, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda hukmdori To'xtamish, turk sulmoni Boyazid I Yildirimga qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatni mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lganligi buyuk sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan". [2]

Endi ikkinchi qismiga to'xtaladigan bo'lsak, mazkur qismda Amir Temur boshqaruv sohasidagi o'z tajribalarini, davlat boshqaruvida nimalarga asoslanib ish yuritish kerak, davlatdagi lavozim egalari qanday bilimlarga ega bo'lishi kerak, ularning asosiy naqsad va vazifalari nimalardan iborat, davlat boshqaruvchisi bo'lganlarga o'z pand-nasihatlarini bayon etgan. Amir Temurning "Temur tuzuklari" asaridagi quyidagi fikrlari va amallari orqali davlatni naqadar adolatli boshqarganligi, uning boshqaruv usullari bugungi kunda ham o'z aksini topayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin: "Oltinchi (tuzukim)-adolat va insof bilan Tangrimning yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shavqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko'nglidan joy oldim. Siyosat va insof bilan sipohlarimni, raiyatni umid va qo'rqinch orasida tutib turdim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, askarlarimga in'omlar ulashdim.

Zolimdan mazlumning haqqini oldim. Zolim yetkazgan moddiy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, uni shariatga muvofiq ikkisi o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm yetkazmadim".[3] Albatta, jamiyatimizdagi sud-huquq tizimiga nazar tashlasak, "aybsizlik prezyumsiyasi" singari tamoyillarga o'sha davr sud tizimi naqadar uyg'unlashganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Ilmiy bilimlar Temuriylar davrida yuqori ko'rsatkichlarga ko'tarildi. Ayniqsa, astronomiya ilmida Mirzo Ulug'bek va uning barpo etgan akademiyasidagi olimlarning tadqiqotlari va jadvallaridan XVII asrga qadar jahon ilm-fanida turli masalalarni hal etishda foydalanildi. Mirzo ulug'bek Samarqandda, Buxoroda va G'ijduvon shaharlarida madrasalar bunyod etildi va mazkur ilm dargohlarida turli fanlardan yetuk mutaffakkir olimlar mudarrislik qilishdi. Ulug'bek Samarqandda astronomik kuzatish ta tadqiqotlar uchun rasadxona bunyod ettirdi va shu orqali u o'z akademiyasiga asos soldi. Uning mazkur akademiyasini dunyodanitgan mashhur falsafashunos olim Volter hisoblanadi. U o'zining "Millatlarning odatlari va holatlari haqida" asarining 3-jildida Mirzo Ulug'bek faoliyatiga to'xtalib shunday deydi: "Ulug'bekning buyukligi, uning qilgan ishlari bilan belgilanadi. U Samarqandda birinchi Fanlar akademiyasini yaratdi, yer kurrasini o'rgandi, koinot va yulduzlarni kashf etib, mashhur jadval tuzdi..." deb yozadi.[4] Mirzo Ulug'bek akademiyasidabuton jahondan kelgan yuzdan ziyod olimlar o'z ilmiy faoliyatini amalga oshirgan va dunyo ilm-fani rivojiga hissa qo'shgan ilmiy asarlarini yartishgan. Mazkur asarlar asosan, astronomiya, matematika, falakiyot, mantiq ilmlariga bag'ishlangan. Akademiya olimlarining yozgan asarlaridan namunalar keltiradigan bo'lsak, Mirzo Ulug'bekning eng mashhur asari : "Ziji Ko'ragoniy" asari bo'lib, unda 1018 ta yulduzning joylashuv koordinatalari jadvalini tuzib chiqqan. "Qozizoda Rumiy asarlari: "Risola fil hisob", "Risolatul jayb", Taftazoniyning "Miftahul-ulum" asariga sharh; G'iyosiddin Jamshid asarlari: "Suslam us-samo", "Risolat ul-atvor val jayb"; Ali Qushchi asarlari: "Risola dar ilmi hisob", "Risola qusur", "Risola dar falakiyot", "Risolayi mantiq" kabi asarlar. "[5]

Tarixshunoslik ilmida mazkur davrda ko'plab tarixchi mutafakkirlar yetishib chiqdi. Ulardan eng oldi tarixchilar Mirxond vaunting nabirasi Xondamir edi. Aynan, Mirxondning buyuk tarixchi bo'lib yetishishida Alisher Navoiyning xizmati beqiyos. U Mirxondni ham moddiy qo'llab quvvatlab turgan, Xolosiya xonaqohidagi yaxshi binoni unga ajratib bergan, shuningdek, o'zining shaxsiy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat bergan. Shu o'rinda Navoiy timsoliga to'xtalsak, mazkur davrda badiiy adabiyot yo'nalishida salmoqli xazina qoldirgan Navoiy so'z mulking sultoni bo'lish bilan birga, ilm-fan peshvosi sifatida qobiliyatli, ilmga tashna tolibi ilmlarni qo'llab-quvvatlagan, ko'plab madrasa va maqbaralar bunyod ettirgan. U haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev alohida to'xtalib shunday deydi: "Hazrat Mir Alisher Navoiy o'ta murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy g'oyalarni baland ko'tarib maydonga chiqqani, o'zbek adabiy tiliga asos solib, uning o'lmas ruhi, qudrati va latofatini har tomonlama isbotlab

bergan chinakkam ma'naviy jasorat namunasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz...Bugungi kunda biz Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo etish jarayonlarida Alisher Navoiy asarlarini o'zimiz uchun bitmas-tuganmas kuch-g'ayrat va ilhom manbai deb bilamiz. Shu bois bu noyob ma'naviy boylikni chuqur o'rganish va targ'ib etish doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi".[6]

Mana shunday buyuk siymo Mirxondga o'z maslahatlari bilan doimo yo'l ko'rsatgan. Aynan Mirxondning mashhur "Ravzat us-safo" asarini yozishida Navoiyning maslahatlari alohida o'rin tutadi. U bu kitobni 7 jildda yozishini aytadi, lekin, Mirxond bevaqt vafot etib, 6 ta kitobni yozib tugatadi. Mazkur asarni uning nabirasi bo'lgan Xondamir yozib tugatadi. Xondamirning mashhur tarixiy asari "Habib us-siyar" tarixiy asari hisoblanadi. Shuningdek, u axloqiy bilimlar va axloqiy sifatlarni o'zida birlashtirgan "Makorim ul-axloq" asarini yozadi. Unda Alisher Navoiy faoliyatidagi axloqiy sifatlarini, bunyodkorlik ishlarini bayon etib o'tgan.

XVI-XV asrlarda yashab o'tgan falsafa, axloqiy bilimlar sohasida qimmatli asarlar yzogan alloma Sadiddin Taftazoniy hisolanadi. U Yoshligidan mantiq, falsafa arab tili ilmlari bilan shug'ullangan. 40 dan ziyod risolalar yozib qoldirgan. Masalan: "Tahzib al-mantiq val-kalom", "Muxtasar al-ma'oniyy" kabi kalom ilmi, ritorikaga oid asarlar yozgan. U bilish jarayoni, sabab va oqibat masalalarida o'zining qarashlarini bayon etgan.

Jumladan bilish jarayoni uch bosqichga bo'linishi va ular: his-tuyg'u va ta'sir, ularning inson ruhi orqali qabul qilinishi, so'ngra aqliy bilishdan iborat deb tushuntiradi.

O'z davrining yana bir yirik mutaffakkiri Husayn Voiz Koshifiy aynan axloqiy bilimlar sohasida "Axloqi muhsiniy asarini yozadi. Bundan tashqari u ilohiyot, falakiyot, pedagogika sohalarini chuqur o'rganib asarlar yozadi." Ushbu asarlarda mutafakkir davlatni oqilona boshqarish, insonga go'zal xulq-odob qoidalarini singdirish, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, tijoratchi va savdogarlar xulq-odobi, umuman, ta'lim-tarbiya haqida qimmatli fikrlarni ilgari suradi".[7]

Xullas, XIV-XV asrlarda jahonga mashhur allomalar yetishib chiqdi va qimmatli ilmiy meros qoldirdi. Aynan, bugungi biz barpo etayotgan Yangi Renessans uchun ularning ilmiy merosini chuqur o'rganish nihoyatda lozimdir. Afsuski, mazkur davrning hali chuqur o'rganilmagan allomalar faoliyati va ularning asarlari bor. Jumladan, Taftazoniy, Jurjoniyy, Koshifiy singari falsafa, axloq, kalom ilmida qimmatli asarlar yozgan mutafakkirlarning asarlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratish va ilmiy tadqiqotchilarni jalb etish lozim. Chunki, ularning asarlari orqali biz noyob ma'lumotlar egasi bo'lamiz va ma'naviy dunyoqarashimiz yanada yuksaladi. Ilm-fanning bizga sirli va yashirin bo'lgan qanchadan qancha qirralari ochiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, II Renessans allomalarining ilmiy merosini o'rganish va tadqiq etish Yangi O'zbeistonimiz ilmiy asarlarining salmog'ini oshiradi. Yoshlarimizga Temuriylar davri madaniyatini tanitishda bugun yoshlarni qurshab olgan kontentlar va internetdan unumli foydalanib, allomalarimiz ijodi va asarlari sharhini

qisqa kontentlarga joylasak, o'ylaymanki, katta natijalarga sabab bo'ladi, har bir inson o'z bilimlarini oshiradi va qarashlari va fikrlash jarayoni yanada o'sadi. Amir Temur o'z davrida ulkan davlat barpo etib, davlatni har tomonlama yuksaltirdi. Me'moriy obidalar qurdirdi, chet davlatlar bilan diplomatic aloqalar o'rnatdi, ilm-fanga shu darajada e'tibor qaratdiki, mo'g'ullar bosqinidan so'ng, davlat qayta tiklanib, Yangi Uyg'onishga turtki berdi va buyuk allomalarni yetishtirdi. Davlat boshqaruvida o'zining adolatli siyosati bilan, chet davlatlar orasida o'zining kuchli va zabardastligi, mohir strategligi bilan nom qozondi. Aynan, Temur siymosiga bag'ishlab, uning butun umr yo'lini yoritgan tele-serial yaratish, o'ylaymanki, barcha o'zbek ahlosi uchun Amir Temur qayta gavdalanadi va Vatanparvarlik ruhini ko'tarib, yoshlarimiznu mazkur siymolar yo'lidan borishiga turtki bo'ladi va albatta, III Renessansning Amir Temurlari, Navoiy, Ali Qushchi, Taftazoniy va Koshifiylari voyaga yetadi!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.M. Mirziyoyev "Alisher Navoiy va Sharq Renessansi" VI xalqaro simpozium ishtirokchilariga nutqi. 08.02.2025. [6]
2. R. Shamsutdinov, H. Mo'minov "O'zbekiston tarixi" darslik. "Sharq" nashriyot-matbaa uyi T:2013. [2]
3. Temur Tuzuklari. Toshkent "O'zbekiston" 2019. [3]
4. R. Shamsutdinov, H. Mo'minov "O'zbekiston tarixi" darslik. "Sharq" nashriyot-matbaa uyi T:2013. [4]
5. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova "O'zbekiston tarixi" darslik. Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2006. [5]
6. SH.M. Mirziyoyev "Alisher Navoiy va Sharq Renessansi" VI xalqaro simpozium ishtirokchilariga nutqi. 08.02.2025. [6]
7. Falsafa asoslari. Darslik. "O'zbekiston" nashriyot matbaa uyi T:2005, 80-bet. [1], [7]